

daromad bazalarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etib, kompleks va mutanosib rivojlantirishni ta'minlash, mintaqalarning mavjud tabiiy-xomashyo, ishlab chiqarish va mehnat salohiyatidan oqilona foydalanish hamda aholining turmush darajasi va faravonligini izchil oshirib borish, shuningdek mahalliy hokimiyat organlarining byudjet daromadlarini mustahkamlash yuzasidan olib borilayotgan tizimli chora-tadbirlarni izchil davom ettirish hududlar iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim o'rinni egallaydi.

Mahalliy byudjetlar tarkibiy jihatdan viloyat, tuman va shahar byudjetlaridan iborat bo'lib, ushbu byudjet asosida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, mahalliy ahamiyatga doir turli ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal etish, mahalliy byudjetga qarashli muassasalar faoliyatini moliyalashtirish, aholini ijtimoiy muhofaza qilish, bunyodkorlik va obodonlashtirish kabi ishlar amalga oshiriladi. Bu kabi hayotiy muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarning o'z vaqtida amalga oshirilishi, ularning moliyaviy asosiga borib taqaladi.

Mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirish prinsiplariga to'liq rioya etilishi soliqlarning yig'iluvchanlik darajasini oshiradi, soliq to'lovchilarining soliqlarni to'lashdan manfaatdorligini ta'minlaydi, mahalliy byudjetlar soliqli daromadlari rolini oshirishning mustahkam garovi bo'lib xizmat qiladi, pirovardida, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga zamin hozirlaydi.

## **YASHIL SOLIQLAR KONSEPSIYASINI AMALGA OSHIRISH DOIRASIDA CO<sub>2</sub> KARBONAT ANGIDRID GAZLARINI KAMAYTIRISH MASALALARI**

*Bauyetdinov M.J.  
TDIU, PhD, dotsent  
Eshbanbetov E.M.  
TDIU, magistrant*

"Yashil soliq" tamoyili zamonaliviy ta'limga tizimida barqaror rivojlanish g'oyalarini amalga oshirish uchun muhim strategik soliq hisoblanadi. Dunyo bo'y lab zaharli gazlar kelib chiqishi, axlat chiqindilari ko'payishi, iqlim o'zgarishlari, tabiiy resurslarning cheklanganligi va ekologik muvozanatning buzilishi kabi muammolar globallashuv jarayonida keng miqyosda muhokama qilinmoqda. "Yashil soliq" tamoyili talabalarda ekologik tozalik haqida ong va madaniyatni shakllantirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini barqarorlik tamoyillariga yo'naltirish, amaliy jihatdan ekologik toza texnologiyalarni hayotga joriy etishni nazarda tutadi.

Mazkur tamoyilning asosiy maqsadi nafaqat davlat infratuzilmasini ekologik jihatdan modernizatsiya qilish, balki ta'limga jarayonini barqaror rivojlanish tamoyillari bilan uyg'unlashtirishdir. Shu jumladan, davlat miqyosida axlat chiqindilarini kamaytirish, energiyani tejash, chiqindilarni qayta ishslash, yashil maydonlarni kengaytirish, suv resurslaridan oqilona foydalanish va yashil

energiya texnologiyalarini joriy qilish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish dolzarb masala sifatida ko'rilmoxda. Bunday yondashuv talabalarga nafaqat nazariy bilim, balki ularni amaliyotda qo'llash ko'nikmasini beradi.

2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi tasdiqlandi va quyidagilar uni amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari etib belgilandi:

- iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlari energiya samaradorligini oshirish;
- energiya resurslari iste'molini diversifikatsiyalash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish;
- iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va tabiiy ekotizimlarni asrash;
- "yashil" iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish<sup>253</sup>.

Butunjahon tabiatni muhofaza qilish jamg'armasi ekspertlarining fikricha, ekologik zararsiz ishlab chiqarish va iste'mol jamiyat va butun dunyoning keyingi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining kafolati hisoblanadi. Yashil soliqlarni joriy etish shunchaki tendentsiya emas, balki, birinchi navbatda, misli ko'rilmagan iqtisodiy rivojlanish va atrof-muhit degradatsiyasi o'rtasidagi nomutanosiblikning kuchayishi bilan bog'liq bo'lgan real zaruratdir. 20-asrning oxiridan beri kuzatilayotgan global yalpi ichki mahsulotning jadal o'sishi insoniyatga ko'plab imtiyozlar berdi va bizning turmush darajamizni ko'p marta oshirdi, ammo boshqa narsalar qatori, chuchuk suv va oziq-ovqat tanqisligi, zararli gazlar kelib chiqishi, chiqindilarning haddan tashqari ko'payishi, iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi va boshqalar kabi qator ekologik muammolarni keltirib chiqargan tabiiy resurslarning sezilarli darajada kamayishi hisobiga erishildi.

Adam Smit soliq tizimining asosiy tamoyillarini ishlab chiqqan va soliq to'lovchilar uchun adolatli va samarali tizimni ta'minlash zarurligini ta'kidlaganining zamirida soliq bazasini aniqlash metodologiyasiga ishora etgan deyish mumkin. A.Smit bir nechta tanlab olingen manbalarga tayanmasdan, turli xil daromad manbalari bo'yicha taqsimlanadigan keng qamrovli soliq bazasi tizimi g'oyasini ilgari surgan va har bir shaxs o'z soliq majburiyatini bajarishi uchun soliq bazasi oddiy, shaffof va minimal imtiyozlar bilan to'la bo'lishi kerakligini ta'kidlagan<sup>254</sup>.

1-rasmda 2015–2021-yillarda Markaziy Osiyo mamlakatlariga ko'p tomonlama rivojlanish banklari (MDB) tomonidan ajratilgan umumiyl iqlim moliyasini aks ettirilgan. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak:


1. Barqaror o'sish: Iqlim moliyasi yildan-yilga ortib borgan va 2021-yilda eng yuqori nuqtaga yetib, 1,9 milliard dollarga yetgan.
2. Eng katta mablag' O'zbekistonga: O'zbekiston doimiy ravishda eng katta moliyalashtirishni olgan, ayniqsa 2018 va 2021-yillarda.

<sup>253</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi «2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PQ-4477-sonli Qarori.

<sup>254</sup> Smith, Adam. The Wealth of Nations. Oxford, England: Bibliomania.com Ltd, 2002.

3. Qozog'istonning o'zgaruvchan ulushi: Qozog'iston ayniqsa 2017 va 2019-yillarda sezilarli mablag' olgan, ammo yillar davomida ulushi o'zgarib borgan.

4. Boshqa mamlakatlarga o'rtacha darajadagi moliyalashtirish: Qirg'iziston va Tojikiston nisbatan kamroq mablag' olgan va ularning ulushi yillar davomida barqaror qolgan.



### **1-rasm. Markaziy Osiyo mamlakatlarining MDBlar tomonidan ajratilgan umumiy iqlim moliyasi<sup>255</sup>, milliard dollar**

Umuman olganda, ma'lumotlar Markaziy Osiyoda iqlim bilan bog'liq loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun moliyaviy majburiyatlarning ortib borayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, O'zbekiston eng ko'p foyda olgan mamlakat bo'lib, iqlim tashabbuslariga e'tibor tobora kuchayib bormoqda.

O'zbekistonning 2023-yilda jami CO<sub>2</sub> chiqindilari 6,62 milliard tonnaga yetgan. Ma'lumotlar CO<sub>2</sub> chiqindilarining doimiy ortib borayotganini ko'rsatmoqda, bu esa O'zbekistonning sanoat va energetika sektorlarida hali ham ko'mir, gaz kabi yoqilg'ilarga tayanayotganini anglatadi. 6 milliard tonnadan ortiq CO<sub>2</sub> chiqindisi bilan O'zbekiston global miqyosda sezilarli darajada hissa qo'shmaqda, bu esa barqaror energiya siyosatini shakllantirish zarurligini ko'rsatadi. Chiqindilarni kamaytirish uchun O'zbekiston qayta tiklanadigan energiya manbalariga, energiya samaradorligiga va past uglerodli texnologiyalarga sarmoya kiritishni tezlashtirishi lozim va shu bilan birga yashil soliqlarniham joriy etish kerak.

Albatta, kelajak avlodlar uchun resurslarni saqlab qolish haqiqatan ham butun dunyo bo'ylab ishlab chiqarish hajmining misli ko'rilmagan o'sishi davrida asosiy muammolardan biridir. Ko'pgina manbalar yashil iqtisodiyot g'oyasini makro darajada ko'rib chiqadi - ular mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlik, xalqaro standartlar va kelishuvlarni yaratish haqida gapiradi. Biroq, bizning fikrimizcha, milliy miqyosda yashil soliqlarni shakllantirish, avvalambor, uning hududida

<sup>255</sup><https://ourworldindata.org/>

faoliyat yuritayotgan, nafaqat o'z faoliyatini yashil tamoyillar asosida qurish, balki tegishli dasturlardan ham foydalanishga qodir bo'lgan korxonalardan boshlanadi.

#### **Foydalilanilgan adabyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2022 yil 30 dekabrdagi PF 287 sonli Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/6333225>.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2019-yildagi «2019 - 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida» PQ-4477-sonli Qarori.

3. Yashil iqtisodiyot sari: barqaror rivojlanish va qashshoqliknin yo'q qilish yo'llari – siyosatchilar uchun xulosa hisoboti //UNEP. 2011: [veb-sayt]. – URL: <http://www.unep.org/greeneconomy/> (kirish: 09.04.2022).

4. Baxtiyorov U. (2024). Yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida hududlar soliq salohiyatini va ularni oshirishning asosiy yo'naliishlari. Yevraziyskiy jurnal akademicheskix issledovaniy, 5(1 Special Issue), 684–687. izvlecheno ot <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/45684>

5. Smith, Adam. The Wealth of Nations. Oxford, England: Bibliomania.com Ltd, 2002.

6. <https://ourworldindata.org/>

## **ОСНОВНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ ФИНАНСИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН**

**Давлетбаев Жавохир.**

*Студент 3-курса направления  
бакалавриата «Международные валютно-  
кредитные отношения», ТГЭУ.*

**Б.Нурмухamedова**

*Научный руководитель: доцент кафедры  
«Финансы и финансовые технологии»*

Образование является одним из ключевых направлений социального развития, определяющим конкурентоспособность страны и уровень благосостояния граждан. Государственные расходы на образование занимают значительную долю в общем объеме социальных расходов бюджета, что подтверждается статистическими данными. Согласно данным Министерства экономики и финансов Узбекистана, доля расходов на образование в общем объеме социальных расходов увеличивается с 42,7% в 2022 году до 47,3% в 2025 году, что свидетельствует о приоритетности данной сферы для государства. В абсолютных цифрах финансирование образования возрастает с 50,3 трлн сумов в 2022 году до 84,3 трлн сумов в 2025 году, что указывает на положительную динамику.

Актуальность данной темы обусловлена необходимостью анализа